

O'ZBEK KASHTACHILIGI JUDA QADIMIY TARIXGA EGA

San'atshunoslik fakulteti

Tasviriy va amaliy san'at kafedrası

dotsenti M.B. Azimova

Dastgohli rangtasvir ta'lim yo'nalishi talabasi

Xasanova Jasmina To'lg'in Qizi

m.b.azimova@buxdu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada Kashtachilik san'ati va uning rivojlanishi amaliy san'atda keng targalgan sohalaridan biriligi haqida yoritilgan. Kashtachilik san'at ustalari, maktablari va kashtachilikda ishlatildigan naqshlar va asbob uskunalar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: naqsh, kashta, do'ppi, choka, kiyim, buyum, san'at, bezak.

Аннотация

Данной статье описывается искусство вышивки и его развитие как одна из самых распространённых отраслей прикладного искусства. Освещены мастера вышивки, школы, а также схемы и инструменты, используемые в вышивке.

Ключевые слова: узор, вышивка, головной убор, чока, одежда, изделие, искусство, украшение.

Annotation

This article describes the art of embroidery and its development as one of the most widespread branches of applied art. Embroidery masters, schools and patterns and tools used in embroidery are covered.

Key words: pattern, embroidery, hat, choka, clothing, item, art, decoration.

O'zbekistonning turli hududlarida kashtachilikning o'ziga xos usullari va naqshlari rivojlangan. Kashtachilik namunalarini arxeologik qazishmalarda topilgan, masalan, qadimiy xalqlarning kiyimlarida va uy-ro'zg'or buyumlarida ko'rish mumkin. Kashtachilik nafaqat o'zbek xalqi, balki Markaziy Osiyo hududining boshqa xalqlari tomonidan ham o'ziga xos tarzda rivojlangan. Ko'pincha, Samarqand va Buxoro shaharlarida kashtachilik an'analari yuqori darajada edi.

Kashtachilik usullari Kashtachilikda turli usullar qo'llaniladi. Ular orasida Xattotlik kashtachiligi (ijodiy kashtachilik) - turli xat va yozuvlar, shuningdek, geometrik naqshlar ishlash. Musulmon naqshlari - Islom san'atiga xos naqshlar va tasvirlar (masalan, arabeska, o'rta asr yozuvlari).

O'zgacha naqshlar – o'zbek kashtachiligi o'ziga xos o'zgarishlar bilan bezatilgan floristik va geometrik naqshlarga ega. Dastgoh (tikuvchilik) - yuqori sifatli iplar va matolarni ishlatib, yirik va murakkab naqshlarni yaratish. Kashtachilikda

Foydalaniladigan Materiallar Kashtachilikda asosan iplar, matolar, ignalar va bezak elementlari (masalan, marjon, tosh, kumush) ishlatiladi. Ip sifatleri juda muhim ahamiyatga ega. Kashtachilikda eng ko'p ishlatiladigan iplar: paxta, ipak, jun va sintetik materiallar bo'lishi mumkin. O'zbek milliy kashtachiligi (kashtado'zlik) amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan hisoblanib, u xalqning o'z turmush tarszini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga keldi. Kashtachilik san'ati faqatgina bizada emas, balki chet davlatlarda ham shuhrat qozongan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikishgan kirpech, so'zanalar, zardevor, gulko'rpalar, choyshablar kabi kashta do'zlik buyumlari Belgiya, AQSH, Hindiston, Afg'oniston kabi chet mamlakatlarda, yana, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha bu kashtachilik buyumlari o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda.

Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega bo'lib, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab berdi. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarleri bilan birgalikda rivoj topib kelgan.

Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. Ispan elchisi Klavixio Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»siga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasi ixtiro qilindi va bu kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga yomon ta'sir ko'rsatdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qolgan edi. O'zbek kashtachiligi boshqa xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyib rivojlandi. O'zbek kashtalariga nazar solsak, Hind, Xitoy, Rus, Afg'on, Qozoq, Qirg'iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz. Bu san'atda har bir millatning o'ziga xos ko'p qo'llaniladigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p, rus kashtalarida esa geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi. Hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Avvalgi an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari – bo'lajak kelinchaklar o'z seplari uchun har-xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari kerak edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, qiz shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7-9 yoshlaridan boshlab kashta tikishga o'rgatilardilar. Ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaganlar.



Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik haqidagi orzularini kashta tikish bilan ifodalashga harakat qilishganlar. Kashtachilikda bezak buyumlari turlari.

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak edi. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun, so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va shu kabi narsalarni o'zlari tayyorlashgan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor, palak, gulko'rpa, dorpech, bug'joma, parda, belbog', takyapo'sh (yostiq ustiga yopiladigan), do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, hamyon, joynamoz, sumka, maxsi, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. Avvallar bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo'ldi. Turli xildagi zar do'ppilardan namunalar (axta yordamida naqsh o'tkazish) Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo'lib. «Kuloh», «araqchin», «tusdo'ppi». Kuloh – konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog'i. Uning matohi toq uchburchak parchalaridan bichilad va yonlamasiga tikiladi. Kuloh esa (erkaklar bosh kiyimi bo'lib) hozir juda kam uchraydi.

Araqchin bu – sharsimon do'ppi bo'lib, uni asosan keksalar kiyishgan va hozirgacha kiyishadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmato'r, iroqi chok usullari bilan tikiladi. Tus do'ppi – keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi hisoblanib. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppining birgina klassik variantining o'zida sakkizta chok uslubi qo'llaniladi. Chust do'ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo'rtib chiqadi, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikilgan bo'ladi, jiyagi turli xil ipaklardan



rangdor naqshli yo'rma usulida tikiladi. Joynamoz – yerga solib ustida namoz o'qiladigan to'shama. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ishlatadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanadi va uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan masjid, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Masalan, chapon, quroqcha, sholcha kabilardan, chunki ular

diniy nuqtai nazardan pok hisoblangan. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatiladi. Zardevor – uy jihozi, u sidirg'a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatiladigan badiiy buyum hisoblanadi. Zardevor o'zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, ko'rpachlar ustiga yoki devoriga ilib qo'yiladi.

U zar ipakli bo'lib, eni 40-70 sm, uzunligi mo'ljallangan uyni devoriga moslab tikiladi.

Palak – devorlarga ilinadigan eng mahobatli va eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Kashtada osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlaganlar. U so'zanadan gullarining kattaligi, zaminiga esa kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o'rtasida yirik oy tasviri qizil, pushti ipak bilan kashtalanadi va atroflariga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikilgan. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llanilgan. Palakda qirqtacha oy tasvirini ham tasvirlash mumkin edi, shu uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgan. Mashhur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezatishgan va o'z mahoratlarini namoyon etishgan. Agar oyni ichi sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni, oypalak, agar naqshli bo'lsa gulpalak va boshqa nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo'l mehnati ko'p bo'lgani sabab so'zana deyila boshladi, lekin hozir palakni qo'lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda. Kirpech – kirpo'sh, tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorni vertikal bo'sh joylariga iladilar, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum hisoblanadi. Kirpech kashtalari qo'lda yoki mashinada tikiladi. Kashtachilikda tikilgan "Kirpech" Kirpech qo'lda ilma kashta bilan bezatilgan. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turgan. Ko'pincha, palakka o'xshatib tikilgani kirpech palak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

So'zana – forscha so'zani deb ham yuritilgan, igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorlarga ilib qo'yiladi.

Kashtachilikda matolar kigiz, charm, karton, jun, ipaklar, sun'iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoqlar, marjon, metall pulatcha, qimmatbaho tabiiy va har xil sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ko'pincha ishlatilgan. Kashtachilikda o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to'g'nag'ich, angishvona, qaychi hamda chambaraklardan foydalaniladi.

Yo'rma choki – yo'rma, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning o'ng tomonida halqalar zanjiri hosil qilib tikilib, bigizga o'tkazilgan igna bilan esa halqa hosil qilinadi. Yo'rma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyalari, gul va barglarni asosiy shoxga ulaydigan band va boshqa choklar uchun qadimdan shunday usulda tikilgan. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zlari ko'p foydalanadi. Chindi xayol Chindi xayoldu – ro'ya choka, matoga igna qadalib bir me'yorda tikib chiqiladi, teskari o'girib yana tikib chiqiladi. Shunday qilib matoning oldi va orqa tomonida bir xil gullar hosil qilinadi. Bu chok bilan ikki tomoni ham

ko'zga tashlanadigan buyumlar, ya'ni sochiq, ro'mol va boshqa buyumlarni bezashda ishlatiladi. Kuppa choki Kuppa choki – turli yo 'nalishda, ya'ni chapdan o'ngga, o'ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidirg'a tikib hosil qilinadi. Yonma-yon tikiladigan choklar bir tekisda yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan esa kichiklashib boradi. Bu chok duro'ya, yani (ikki tomonlama) sanama, piltado 'zi nomlar bilan ham yuritiladi. Do 'ppido 'zlikda va kashtalarda bular juda keng foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. European science, (3 (59)), 53-56.
2. Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р., & Сулаймонова, М. Б. (2021). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ БЕСЕД ОБ ИСКУССТВЕ. European science, (2 (58)), 38-40.
3. Азимова, М. Б., & Ибадуллаева, Ш. И. (2017). XIX аср охири-XX аср бошларида Бухоро аҳоли турар жойлариинтерьер беаги (Файзулла Хўжаев уй-музейи мисолида). Евразийский научный журнал, (2), 379-383.
4. Ибадуллаева, Ш. И., & Амонова, Р. Ж. К. (2022). Коммуникативные Основы Художественной Культуры. Miasto Przyszłości, 28, 169-173.